

MULKIY HUQUQNI FUQAROLIK HUQUQI NORMALARI BILAN HIMOYA QILISHNING BOSHQA USULLARI

Imomaliyeva Nilufar Tulqin qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mulk huquqini himoya qilishning usullari tahlil qilingan bo'lib, ushbu huquqlarni himoya qilishda qo'llaniladigan usul va vositalar qonunchilik hujjatlariga asoslangan holda yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: mulk huquqi, vindikatsion da'vo, negator da'vo, zarar yetkazish

Mulkiy huquqni himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni o'rganishda, mulk egalarining mulkiy huquqlarini himoya qiluvchi majburiyat huquqiga oid vositalar ham muhim ahamiyatga ega. Mulk huquqini himoya qilishning bunday majburiy-huquqiy usullari ikki ko'rinishda: 1) shartnomali munosabatlar; 2) shartnomadan tashqari munosabatlarda bo'ladi. Shartnomali munosabatlarda mulkiy huquqning himoya qilinishi to'g'risida shuni aytish kerakki, tuziladigan xilma-xil shartnomalar aksariyat hollarda qonunga, shartnoma shartlariga rioya qilinib, to'g'ri va insofli ravishda bajariladi. Ammo ba'zi hollarda shartnomaning ayrim intizomsiz ishtirokchilari shartnoma yuzasidan olgan o'z majburiyatlarini butunlay bajarmasliklari yoki lozim darajada bajarmaslik hollari ham uchraydi.

Bunday paytlarda tabiiy buzilgan mulkiy huquqlarni tiklash hamda shuning o'zi bilan mulkiy huquqlarni har tomonlama va to'la himoya qilish masalasi qo'yiladi. Shartnomali munosabatlarda mulkiy huquqlarni buzish quyidagicha ko'rinishlarda bo'lishi mumkin: a) qonun hujjatlarining talablariga muvofiq kelmaydigan mazmundagi bitim, shuningdek, huquq-tartibot yoki axloq asoslariga atayin qarshi maqsadda tuzilgan bitim o'z-o'zidan haqiqiy emas va u FKning 116-moddasiga binoan, haqiqiy sanalmaydi hamda har ikki tarafning yoki bir tarafning bunday shartnoma yuzasidan olgan daromadlari davlat daromadlariga o'tkaziladi; b) muomalaga layoqatsiz shaxslar (yosh bolalar, ruhiy kasallar) bilan bitim tuzilishi natijasida mazkur shaxslar mulkiy zarar ko'rsalar, qonun (FKning 117-119-moddalari) tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas, deb topishi bilan birga buzilgan mulkiy huquqning tiklanishi lozimligini ham ko'rsatadi. Masalan, 13 yoshli bola o'ziga hadya qilingan fotoapparatni ota-onasining ruxsatisiz birovga sotsa, shartnoma haqiqiy sanalmasligi va 207 bunday shartnomaning tuzilishi natijasida voyaga yetmagan shaxs mulkiy zarar ko'rgan bo'lsa, zarar haqi undirilishi mumkin; d) jiddiy yanglishish, aldanish, zo'rlik qilinishi ta'sirida tuzilgan bitimlar (shartnomalar) sud tomonidan haqiqiy emas, deb topilishi mumkin.

Bunday bitimlar tuzilishi natijasida buzilgan mulkiy huquqlar ham qonun (FKning 122-123-moddalari) bo'yicha himoya qilinadi; e) ayrim shartnomalar,

chunonchi, oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, kontraktatsiya, ijara, pudrat, yuk tashish va boshqa qator shartnomalar bo'yicha olingan majburiyatlar butunlay yoki lozim darajadabajarilmasligi natijasida tashkilotlar yoki ayrim fuqarolar mulkiy zarar ko'rishlari mumkin. Bunday hollarda ham qonun (bunday shartnomalar)ning har qaysisini buzish oqibatlari to'g'risida, huquqiy normalar buzilgan huquqlarni himoya qilinishini nazarda tutadi.

Shartnomalardan tashqari bo'ladigan majburiyat munosabatlarida mulkiy huquqlarning himoya qilinishiga kelsak, ba'zi hollarda majburiyat munosabatlari yuqorida aytilganidek, o'zaro kelishuv asosida tuzilgan shartnomalardan kelib chiqmay, bevosita qonun bilan ham belgilanishi mumkin. Bunday hollarda tashkilotlar va fuqarolar qonunga asosan o'zaro majburiyat munosabatlarida bo'ladi va huquq subyektlari (tashkilotlar va fuqarolar) bir-birlariga nisbatan muayyan majburiyatlar oladi.

Agar qonun bilan belgilangan majburiyatlarni bajarmaslik natijasida mulkiy zarar ko'rilsa, buzilgan mulkiy huquqlarni himoya qilish masalasi vujudga keladi. Shartnomalardan tashqari bo'lgan majburiyat munosabatlarida mulkiy huquqning buzilishi asosan quyidagi hollarda uchrashi mumkin: a) ba'zi hollarda ayrim shaxslar (yuridik shaxslar yoxud fuqarolar)ning mulkiga qasddan yoki ehtiyotsizlik bilan zarar yetkazish tufayli mulkiy huquqlar buziladi.

Masalan, davlat yoki tashkilot mol-mulkini talon-taroj qilish, fuqaroning mulkini o'g'irlash, fuqaroga zarar yetkazilishi natijasida mulkiy huquqlar buzilishi mumkin. Bunday hollarda qonun buzilgan huquqlarning tiklanishi, mulkiy huquqlarning har tomonlama va to'la himoya qilinishini belgilaydi; b) amalda birovdan topshiriq olmay, uningmanfaatlarini ko'zlab, ba'zi xarajatlar qilish hollari ham bo'lishi, chunonchi, birovning to'satdan kasal bo'lib qolgan bolasini shifoxonaga taksi mashinasida olib borib joylashtirishda ma'lum xarajat qilinishi mumkin.

Qonun bunday hollarda ham zararningto'lanishi lozimligini ko'rsatib, mulkiy huquqni himoya qiladi; d) xatolik bilan birovning mulki olingan yoki tejalgan bo'lsa, ya'ni birovning mulkini olib qolish yoki tejash uchun qonun yoki shartnoma bilan belgilangan asoslar bo'lmasa, olingan yoki tejalgan mulk egasiga qaytarilishi lozimligi qonunda belgilanadi. Masalan, xatolik bilan ikkinchi marta takror to'langan qarz yoki olinmagan mahsulot uchun tashkilotning to'langan puli qaytarilishi lozim. Qonun (FKning normalari) yana boshqa ba'zi hollarda hamshartnomalardan tashqari vujudga keladigan majburiyatlarda mulkiy huquqlarning himoya qilinishini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Муаллифлар жамоаси. Фукаролик ҳуқуқи. 2-қисм. Дарслик. –Тошкент: ТДЮУ, 2019. 684 б.

2. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига шарх. 2-жилд. (иккинчи қисм). Адлия вазирлиги. –Тошкент: Baktria Press, 2013. 912 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига шарх. 3-жилд. (иккинчи қисм). Адлия вазирлиги. –Тошкент: Baktria Press, 2013. 800 б.
4. Имомов Н.Ф. Юридик шахс мохиятининг фуқаролик-ҳуқуқи талқини (назарии масалалар). Монография. –Тошкент: ТДЮУ, 2017. 156 б.
5. Окюлов.О., Рузиназаров Ш.Н., Имомов Н.Ф. Фуқаролик қонунчилигининг ривожланиши ва такомиллаштириш истикболлари (ахборот таҳлилий материал). –Тошкент: ТДЮИ, 2015. 111 б.